

## **Matematika fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirish va kasbiy faoliyatga yo'naltirishning pedagogik shartlari.**

*Matematika o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi: Halimov O' H*

*Matematika o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi: Mamatov J A*

Maqolamizda faoliyatli yondashuvni quyidagicha amalga oshirishdik xususan: 1) talabalarda bilish motivi va aniq o'quv maqsadining mavjudligi; 2) yetishmayotgan bilimlarni to'ldirish uchun ular tomonidan muayyan amallarni bajarish; 3) bilimlarni ongli ravishda qo'llash usullarini o'zlashtirish (ongli ko'nikmalar); 4) o'zini o'zi boshqarish qobiliyatining mavjudligi; 5) o'quv mazmunini talaba uchun muhim bo'lgan muammolarni hal qilish kontekstiga kiritish.

Keng ilmiy va amaliy pedagogik tajribadan ko'rinib turibdiki, faoliyatli yondoshuv ko'plab pedagogik texnologiyalarning asosi hisoblanadi, masalan, muammoli interfaol ta'lim, o'qitishga faoliyat xarakterini beradigan va talabalarni faoliyatning jarayonida ma'lumot (ma'lumot) olinadigan yangi turlarini (ijodiy, tadqiqot) o'zlashtirishga yo'naltirilgan, fanlararo aloqalar asosida integrallashtirilgan o'qitish; asosiy e'tibor mustaqillikni rivojlantirishga, talabalarning o'z faoliyati natijalari uchun javobgarligini va natijada matematik o'qitishning amaliy yo'nalishini kuchaytirishga qaratiladi.

Faoliyat shaxsiyatni rivojlantirishda yetakchi omil ekanligi va insonning shaxs sifatida shakllanishining asosi, vositasi va sharti ekanligi, ya'ni o'z faoliyatining o'zini o'zi boshqaruvchi madaniy sub'ekti sifatida tan olinadi. G.K.Selevkoning fikriga ko'ra, mutaxassisning kompetentligi faoliyatda namoyon bo'ladi, faoliyatdan tashqarisida kompetentlikning mavjudligi yoki yo'qligi haqida faqat bilvosita belgilari bo'yicha aniqlash mumkin [1]. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, talabalarning matematik kompetensiyasining rivojlanishi turli xil faoliyat turlarini o'zlashtirish jarayonida va birinchi navbatda biz

tomondan ishlab chiqilgan pedagogik shartlarni amalga oshirish orqali tashkil etilgan matematik tayyorgarlik jarayonida ro'y beradi deb ta'kidlash mumkin.

pedagogik shart – talabalar tomonidan matematik tayyorgarlikga motivatsiyasi asosi sifatida kasbiy ahamiyatli matematik bilimlarni faollashtirish usullarini egallanishidan iborat bo'lib ularning matematik kompetentliginin motivatsiyali – ahamiyatli komponentini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu pedagogik shartni amalga oshirishda sanab o'tilgan tizimli va faoliyatli yondoshulardan tashqari shaxsga yo'naltirilgan yo'nalishning samaralisidir.

**SHaxsga yo'naltirilgan** yondashuv nuqtai nazaridan, biz, birinchi navbatda, har tomondan talabalarning shaxsiyatini, shu jumladan individual xususiyatlar nuqtai nazaridan, insonning rivojlanish darajasi va o'zini qadrlash darajasini hisobga olamiz. Texnik mutaxassisliklar talabalarini matematik tayyorlash jarayonida ushbu yondashuvning amalga oshirilishi talabalarni o'zini shaxs sifatida anglashga yo'naltirish, ularning imkoniyatlarini aniqlash va ochib berish, shuningdek ularning texnik mutaxassis uchun shaxsan va ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi belgilash, o'zini o'zi tasdiqlash kabi muammolarni hal qilishni ta'minlaydi .

**SHaxsga yo'naltirilgan** yondashuvda ta'lim jarayonining shaxsga maqsadga, natijaga, sub'ekt va samaradorlikning asosiy mezoniga kabi yo'naltirilishi sodir bo'ladi [2]. V. A. Belikov fikriga ko'ra bu yo'nalishni qo'llash quyidagilar ta'minlanadi: 1) shaxsni uning faoliyatini tashkil etish orqali rivojlantirish; 2) faoliyatning predmetli va shaxsli tomonlarining o'zaro munosabatlarining va o'zaro o'tishlarning birligi; 3) ta'limning shaxs rivojlanishining har bir bosqichlarida uning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olishi va bo'ysinishi; 4) talabalarda faoliyat inson uchun ahamiyatli xodisa ekanligi haqida tasavvur. Ta'lim jarayoniga ushbu yondashuvni kiritishda natijaga erishish biz tomondan F. Zeer [3] va A. Ya. Nayn ishlaridan aniqlangan tamoyillar majmuasining amalga oshirilishiga bog'liq. Belgilangan tamoyillarning birinchi

uchtasi asosiy xisoblanadi. *Birinchi*da, shaxsning rivojlanishining xar bir bosqichida ta'lim uning qobiliyati va qiziqishlariga bo'ysinadi; *ikkinchi*dan, kasbiy ta'lim texnologiyalari ta'limning barcha bosqichida shaxsning kasbiy rivojlanish qonuniyatlariga asoslanadi; *uchinchi*dan, ta'limning barcha bosqichida talabaning individual tajribasi, uning o'z o'zini shakllantirish va rivojlantirishga ehtiyojlari xisobga olinadi; *to'rtinchi*dan, kasbiy ta'lim jarayonining amalga oshirilishi ta'lim muxitini tashkil etilishiga bog'liq; *beshinchi*dan, kasbiy ta'lim mazmuni zamonaviy ishlab chiqarish talablariga mos.

SHunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv biz uchun talabalarga professional ahamiyatli matematik bilimlarni yangilash usullarini o'zlashtirish jarayonini tashkil etishda qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Ushbu shartni asosli deb hisoblash mumkin, chunki, bu motivatsiya shaxsning faoliyatini qo'zg'atadigan va shu bilan faoliyat natijalariga muvaffaqiyatli erishishni ta'minlaydigan boshlang'ich mexanizmdir. Shu bilan birga, talaba o'z faoliyatida qanday motivlarga rioya qilishi muxim ekanligini anglaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Селевко, Г. К. Современные образовательные технологии / Г. К. Селевко. – М. : Народное образование. –1998. – 256 с.
2. Беликов, В. А. Дидактические основы организации учебно-познавательной деятельности школьников : дис. ... д-ра пед. наук / В. А. Беликов. – Челябинск, 1995. – 389 с.
3. Зеер, Э. Ф. Компетентностный подход к модернизации профессионального образования / Э. Ф. Зеер, Э. Семанюк // Высшее образование в России. – 2005. – № 4. - С. 23-30.
4. Mamatov, J., Parmonov, A. (2020). Tasvirli masala matematikani o'qitish samaradorligini oshirish vositasi sifatida. Архив Научных Публикаций JSPI, 109-109.
5. Mamatov, J. (2020). Tasvirli masalalar tuzishda yo'l qo'yiladigan kamchiliklarni yop'qotish haqida. Архив Научных Публикаций JSPI.